

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari .....	16
<b>Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna</b>	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari .....	26
<b>Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li</b>	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili .....	32
<b>Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li</b>	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili .....	37
<b>Turgunov Odilbek Maripovich</b>	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi .....	41
<b>I. Axmedov</b>	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari.....	46
<b>Xusanov Murodjon Sunnatullayevich</b>	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi.....	54
<b>Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li</b>	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish .....	59
<b>Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich</b>	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni.....	65
<b>Baymanova Mavlyuda Djurayevna</b>	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan .....	70
<b>Alimov Damirjon Odilovich</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....	76
<b>Jusupova Anjim Tansiqbaevna</b>	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	82
<b>Sohibjamol Abirkulova</b>	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish .....	87
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b>	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	92
<b>Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li</b>	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi.....	97
<b>Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna</b>	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli.....	104
<b>J. J. Yaxshilikov</b>	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области.....	109
<b>Мусабоев Рустам Алижонович</b>	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida.....)	114
<b>Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich</b>	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari.....	118
<b>Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich</b>	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы .....	122
<b>Раупова Муҳлисахон Ибраҳимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Ҳақимова Нигора Бахтиёрвна</b>	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
<b>Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon</b>	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
<b>Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li</b>	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
<b>Toyirov Yunus Alamovich</b>	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
<b>Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich</b>	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
<b>Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li</b>	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
<b>Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna</b>	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
<b>Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich</b>	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili .....	162
<b>Nasimov Ravshanjon Azimovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari .....	170
<b>Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot</b>	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level .....	175
<b>Khudayorova Munira Omonboy kizi</b>	
Soliq ma'murchiligida joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari .....	182
<b>Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi</b>	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari .....	187
<b>Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna</b>	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
<b>Razzoqov Bexzod Gofurovich</b>	
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment.....	196
<b>Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li</b>	
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish.....	202
<b>Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich</b>	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili .....	208
<b>Ashrafjon Elov</b>	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati .....	214
<b>Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida.....	218
<b>Umarov Davron Shavkatovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari .....	223
<b>Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li</b>	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari.....	227
<b>Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich</b>	



Experience of foreign countries in youth labor market research ..... 231 <b>Asqarova Muhabbat Ibraximovna</b>	231
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash ..... 235 <b>Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi</b>	235
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili ..... 241 <b>Eshmatov Srojiddin Tog'aymurodovich</b>	241
Oliy ta'lim muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari ..... 247 <b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	247
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран ..... 253 <b>Буранова Лола Вахобовна</b>	253



# OLIY TA'LIM MUASSASALARINI XALQARO TASNIFINING VUJUDGA KELISHI ILG'OR TAJRIBALARI

Yuldashev Iskandar Bahromovich

Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim universitetlarining xalqaro tasnifining rivojlanishi va xorijiy universitetlar tajribalari o'rganilgan. Mazkur tendensiyalarning vujudga kelishiga nisbatan olimlarning ilmiy xulosalari va yondashuvlari tizimlashtirilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ilmiy taklif va xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, xalqaro reyting, xalqaro tasnif, oliy ta'lim menejmenti, universitet boshqaruvi.

**Abstract:** The article examines the development of the world class of higher education universities and the experiences of foreign universities. Scientists' scientific conclusions and approaches to the emergence of these trends are systematized. Based on the conducted research, scientific proposals and conclusions were formed.

**Key words:** higher education, international rating, international classification, higher education management, university management.

**Аннотация:** В статье рассматривается развитие международной класса вузов высшего образования и опыт зарубежных университетов. Систематизированы научные выводы и подходы ученых к возникновению этих тенденций. На основе проведенных исследований были сформированы научные предложения и выводы.

**Ключевые слова:** высшее образование, международный рейтинг, международная класс, менеджмент высшего образования, университетский менеджмент.

## KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifiga doir xalqaro tajribada ko'plab yondashuvlarni ko'rish mumkin. Hozirgi kunda oliy ta'lim bozorining global fonida xalqaro darajada tan olinish jadal kurash maydonini vujudga keltirmoqda. Global miqyosda oliy ta'lim bozoridagi raqobat muhitining keskinlashuvi universitetlar o'rtasida abituriyentlarni jalb etishga bo'lgan kurashning oshishiga olib kelmoqda.

So'nggi yillarda ko'plab davlatlarda ta'lim siyosatining liberallashuvi, insonlarning ta'lim olishga bo'lgan huquqlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar o'laroq oliy ta'lim bilan qamrab olishga qaratilgan o'zgarishlar rivojlanmoqda. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida barcha hukumatlar oliy ta'lim bilan qamrab olish masalasida jadal islohotlarni amalga oshirmoqda. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 15-24 yosh bo'lgan aholi soni 2024-yilda 1,2 mlrd. bo'lsa, ushbu raqam 2030-yilga borib 1,3 mlrd bo'lishi bashorat qilinmoqda [1].

Shu boisdan, global oliy ta'lim bozoridagi tendensiyalarni inobatga olgan holda universitetlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qayd etib o'tganimizdek, Times Higher Education World University rankings 2024-yil birinchi 1000 talik ro'yxatida AQSHda joylashgan universitetlarning 156 tasi joylashganligi ushbu mamlakatda ham mahalliy darajada, ham global darajada raqobatbardoshlikning kuchli ekanligini ifodalab beradi.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

S.Velbers va J.Brankovich tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining reytinglari tarixiy-sotsiologik jihatdan tahlil etishga e'tibor qaratishadi [2]. Ularning fikricha, oliy ta'lim muassasalarining reytinglari 1960–70-yillarda ijtimoiy fan sohasi olimlari tomonidan universitet faoliyatlarini baholashga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirishi bilan rivojlanganligini qayd etib o'tishadi. Ushbu tendensiyalari Amerika ta'lim qo'mitasi tomonidan amalga oshirish jarayonlari bilan yanada avj olganligini ta'kidlab o'tishadi.

A.Nelson o'zining tadqiqotida oliy ta'lim muassasalari reytinglari tarixini tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilishga e'tibor qaratadi [3]. Uning fikricha, universitetlarning reytinglari ularni innovatsiyalarga olib borishdan ko'ra, imitatsion jarayonlar bilan shug'ullanishga ko'proq undayotganligini asoslashga harakat qiladi. Jumladan, Amerika universitetlari xalqqa sifatli oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan ko'ra, xalqaro reklama ishlariga ko'proq e'tibor qaratayotganligini ta'kidlab o'tadi. Natijada, bu kabi reyting uchun poygalar universitetlarning akademik yaratuvchanlik va mustaqilligini ta'minlashga yetarli shart-sharoit yaratmayotganligini qayd etadi.

J.Shin va boshqalar universitetlar reytingi borasidagi tadqiqotlarni aks ettirgan ilmiy asarda tarix va istiqbol to'g'risidagi xulosalarni shakllantirib berishadi [4]. Ular universitetlar reytingining evolyutsiyasi va uning oliy ta'limga ta'sirini baholashga harakat qilishadi. Shuningdek, oliy ta'lim siyosati, institutsional tuzilish va jamiyat qarashlarini shakllanishiga reyting tizimining ta'sirini tahlil etishadi. Bu borada, reyting agentliklari tomonidan foydalanilayotgan metodlar to'g'risidagi fikrlarini asoslab berishadi. Ularning fikricha, istiqbolda universitetlar tomonidan reyting tizimiga bo'lgan moyillik saqlanib qolishini asoslaydilar. Shu boisdan, reyting tizimi metodlarini zamonaviy hayot sifatiga salbiy ta'sirini oldini olishga qaratilgan metodlar mezonlari bilan takomillashtirish zarurligi xulosa qilinadi.

K.Stergion va A.Tsikliras birgalikda amalga oshirgan tadqiqotda xalqlar qadriyatlarini oliy ta'lim muassasalarining global reputatsiyalarining shakllanishiga ta'sirini baholash amalga oshirgan [5]. Ular Google Ngram viewer yordamida AQSHning 13ta, Buyuk Britaniyaning 5 ta va Kanadaning 4 ta universitetlarining 1800–2008-yillar oralig'ida ingliz tilida nashr etilgan kitoblarda qanchalik qayd etilish chastotasini tahlil qilishadi. Uzoq muddatli davrda reputatsiyasi va intellektual ta'siri tijoriy xususiyat kasb etadigan QS, THE kabi reyting agentliklari ro'yxatidan ko'ra ijobiyroq ekanligini qayd etib o'tadi. U boisdan, uzoq yillik tarixga ega bo'lish abiturientlar (ularning ota-onalari) tomonidan tanlovni amalga oshirishda sezilarli ta'sirga ega ekanligini ko'rish mumkinligi qayd etib o'tiladi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro darajadagi reputatsiyasi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida izohlab berilmoqda. Tadqiqotlarimiz asosida nazariy jihatdan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:


Birinchi, global oliy ta'lim bozorida talabning sezilarli o'sishi vujudga kelmoqda. Bunda yosh avlodning umumiy aholi sonidagi ulushi ortishi bilan yanada aniqroq tasavvur etish mumkin.

Ikkinchi, oliy ta'lim muassasalarining kuchsiz jihatlarini aniqlash va uni bartaraf etishni rivojlantirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Uchinchi, global reytinglar ro'yxatlarida bo'lishdan asosiy maqsadni tijoriy shaklda bo'lishini oldini olishga qaratilgan maqsadlarni shakllantirish. Bunda universitetning xalqaro tasnifini rivojlantirishda global reyting mezonlaridan emas, balki hayot sifatini oshirishga qaratilgan mezonlaridan kelib chiqib mustahkamlashga erishish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon mamlakatlarining ayrimlarida oliy ta'lim muassasalarining soniga e'tibor qaratsak, ko'plab holatlarda universitetlarning miqdori sezilarli ko'p ekanligini kuzatish mumkin. Masalan, Hindistonda 5349 ta universitet bo'lsa, deyarli bir xil aholi soniga Xitoyda esa, ikki barabar kam ekanligini kuzatish mumkin (1-rasmga qarang). Ko'rinib turibdiki, jahonning ko'plab mamlakatlarida tashkil etilgan barcha universitetlar ham global reputatsiyaga ega bo'lmasligi mumkin ekan. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarining global reputatsiyaga erishishlari murakkablik kasb etishini ifodalaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.



1-rasm. Jahon mamlakatlarida oliy ta'lim muassasalari soni [6], 2023 yil iyul holati.

Global oliy ta'lim bozori 2023 yil holatiga 736,8 mlrd AQSH dollari miqdoriga baholanayotganligini kuzatish mumkin. Bu esa, 2024-2030 yillarda yiliga o'rtacha 12,1 foizlik o'sishni ko'rsatib berishini qayd etish lozim [7]. Shundan, davlat universitetlarining ulushi 41 foizni tashkil etsa, xususiy universitetlar ulushi 59 foizni tashkil etadi.

Masalan, Times Higher Education World University rankings ro'yxatida [8] 2022 yilda 99 mamlakatdan 1600ta oliy ta'lim universitetlari ishtirok etgan bo'lsa, 2024 yilda 108 mamlakatdan 1906ta oliy ta'lim muassasalari ishtirok etdi. Mazkur tendensiya jahonda oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tan olinish holatlariga e'tibori kuchayayotganligini o'zida ifodalab beradi. Bu esa, global oliy ta'lim bozorida raqobatning jadallashayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, Times Higher Education World University rankings 2024 ro'yxatida birinchi 1000 talikda AQSHdan 156ta, Buyuk Britaniyadan 68 ta, Germaniyadan 49 ta, Xitoydan 49 ta va Hindistondan 20 ta oliy ta'lim muassasalari qayd etilganligini ko'rish mumkin.

Fikrimizcha, mazkur tendensiyalar rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda joylashgan universitetlar global oliy ta'lim bozorida o'rni mustahkamlanib borayotgan bo'lsa, ayrimlarida rivojlanish bosqichida ekanligi qayd etish lozim. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro tasnifiga nisbatan yondashuv ham o'ziga xos tendensiyalarni aks ettirayotganligini ifodalab beradi.

A.Usher tomonidan 2016 yilda amalga oshirgan tadqiqotida oliy ta'lim muassasalarining global reytinglarining tarixan rivojlanishi tahlil etilgan [9]. So'nggi o'ttiz yillikda universitetlarni o'zaro solishtirish shaklidan hukumatlarning markaziy vositalari sifatida ta'lim ustuvor yo'nalishlari va ularning moliyalashtirishga ta'siri kabi jihatlarni tahlil etib o'tadi. Uning fikricha, ushbu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularning aksariyati oliy ta'lim bozorining rivojlanishi va reyting tizimini ishlab chiqishda ayrim murakkabliklarni qamrab olishga qaratilganligini ta'kidlab o'tadi. Universitetlarning reytinglari rivojlanishida mahalliy va global reytinglar bilan birga, the UNESCO Publication Rankings and Accountability in Higher Education kabi nashrlarni ham keltirib o'tadi.


Tadqiqotlar davomida kuzatishimiz mumkinki, universitetlarning xalqaro tasnifining rivojlanishida turli yondashuvlar shakllanmoqda. Bunda, xalqaro reyting agentliklari bilan birga akademik reputatsiyaning boshqa



shakllari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, universitetlarning nomlarini ingliz yoki boshqa tillarda nashr etiladigan ilmiy, o'quv adabiyotlarida qayd etilishi chastotalari kabi tendetsiyalarni keltirish mumkin.

Shu boisdan, biz Google Ngram viewer yordamida M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining rus va ingliz tilidagi variantlarini qayd etilish chastotalarini tahlil qilishga e'tibor qaratdik. Mos ravishda "Natsionalniy universitet Uzbekistana imeni Mirzo Ulug'beka", "National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulug'bek" va "Tashkent state university of economics" kabi nomlar bilan qidiruv berganimizda qayd etilish chastotalari kuzatilmadi.

Shuningdek, "Tashkentskiy gosudarstvenniy ekonomicheskiy universitet" nomini 1931–2019 yillar oralig'ida qidirib ko'rilganda 1990–2010 yillarda faol bo'lganligini kuzatish mumkin. Ushbu davr oralig'ida mazkur universitet xalqaro reputatsiyasi adabiyotlar orqali sezilarli namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm. Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 1931–2019-yillarda rus tilida nashr etilgan adabiyotlarda qayd etilish chastotasi.

AQSH universitetlari xalqaro reytinglarda sezilarli ulushga ega bo'lgan xususiyatni kasb ettiradi. Shu nuqtayi nazardan, biz o'rganishlarimiz davomida mazkur mamlakat oliy ta'lim tizimidagi ayrim tajribalarni tahlil qilishga e'tibor qaratamiz.

V.Leydesdorf va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda AQSH va Xitoy universitetlarining reytinglardagi o'rni yuzasidan Z-test metodi asosida tahlillarni amalga oshirgan [10]. Ular AQSHning 197 ta va Xitoyning 205 ta oliy ta'lim muassasalarining the Leiden Rankings 2020 ro'yxatidagi o'rni yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshiradi. Xitoy universitetlari tadqiqot nuqtayi nazaridan quyi, o'rta va yuqori tasnifdagi oliy ta'lim muassasalariga ajratilganligini xulosa qilishadi. Ularning fikricha, makrodarajada solishtirganda AQSH universitetlari yaxshiroq natijalarga erishayotganligini qayd etiladi va xalqaro reytinglarda ham AQSH ijobiyroq natijalarga erishganligi kuzatilgani ta'kidlanadi. Shu boisdan, universitetlarni 3 yoki 4 guruhga bo'lgan holda shakllanganligini xulosa qilishadi.

R.Greval va boshqalar tomonidan 1999–2006 yillarda AQSH universitetlarining USNews tomonidan 1983 yildan e'lon qilinadigan reytingda aks etishini tahlil qilishadi [11]. Unga ko'ra, ro'yxatdagi top-50 ta universitetlarning reytingda qayd etilish tendensiyalari tadqiq etiladi. Jumladan, Garvard, Prinston, Stenford va Yel kabi universitetlar top beshtalikdan doimiy o'rin olishi qayd etib o'tiladi. Ular universitetlarning reytinglardagi o'rni o'zgarishini ehtimoligini tahlil qilishadi. Ularning fikricha, birinchi 5talikdagi universitetlarning reputatsiyalarini saqlanib qolish ehtimoligi yuqori ekanligi qayd etiladi. Jumladan, oxirgi o'rganilgan 8 yilda 8ta universitet top-5talikda ishtirok etgan. Mazkur universitetlarning top-5talikdagi o'rmini saqlab qolish ehtimoligi 0,708ga teng ekanligini ta'kidlab o'tadi.

Fikrimizcha, AQSH universitetlari o'zlarining faoliyatida xalqaro tasnif darajalari birmuncha mustahkam ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ular tomonidan reytinglarda o'rin olishlari boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarning yetakchi universitetlariga nisbatan ham ishonchli reputatsiyaga ega bo'lmoqda. Shuningdek, ularning o'z repu-

tatsiyalarini saqlab qolishlari ehtimolligi ham yuqori ekanligini kuzatish mumkin. Bu esa, AQSH universitetlari tajribalari ahamiyatga ega ekanligini o'zida ifodalab beradi.

S.Brasko tomonidan Yel universitetida akademik hayot va hamkorlikning rivojlanishiga qaratilgan ilmiy xulosalarni shakllantirishga e'tibor qaratadi [12]. Ular talabalarning akademik va ijtimoiy hayotining universitetdagi ijtimoiy kontekstga ta'sirini baholashga qaratilgan. Jumladan, talabalar o'rtasidagi do'stlik ularning ijtimoiy hayotidan ko'ra, akademik faoliyatiga ko'proq asoslanishi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, talabalar o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi ularning universitetdagi bitta turar joyda istiqomat qilishlari ekanligi asoslab beriladi.

2021 yilda Yel universitetida akademik mustaqillik borasidagi voqelikni keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. The New York Times ommaviy axborot vositasida 2021 yil 30 sentyabr kuni tarix fani professori, 2017 yildan buyon the Grand Strategy kursini boshqarayotgan profssor Beverly Gage tomonidan o'quv reja (Curriculum) ishlab chiqilishi va ishga olish jarayonlariga donorlar tomonidan aralashuv bo'lganligi sababli istefoga chiqqanligini ma'lum qiladi [13]. Natijada, Yel universiteti 23chi Prezidenti professor, Peter Salovey bayonot beradi [14]. Uning bayonotida professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar o'zlarining o'quv dasturlarini shakllantirishda, tadqiqot yo'nalishlarini aniqlashda mutlaqo mustaqil ekanliklarini ta'kidlab o'tadi.

Fikrimizcha, global miqyosda yuqori tasnif va reytingga ega bo'lgan AQSH universitetlarida akademik mustaqillik muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shuningdek, ularning strategik rejalarni ishlab chiqishida mustaqillik omilining birlamchi xususiyat kasb etishini ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tajribalarni inobatga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, Yel universiteti tomonidan turli tahdidlarga uchragan olim va tadqiqotchilarni o'z jamoasiga qo'shib olishni nazarda tutadigan Scholars at Risk (SAR) dasturini ishga tushirgan. Universitet Prezidenti Peter Salovey fikricha, universitetning mazkur dasturni moliyalashtirish hajmini yillik 2,6 mln AQSH dollariga oshirishi yettitagacha olim va tadqiqotchilarni kutib olishga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi [15].

Qayd etish lozim, 1937 yilda Yel universitetining boshqaruvchisi A.Xolkombe va boshqalar birgalikda o'rganishlar amalga oshiriladi [16]. Ularning o'rganishlarida quyidagi xulosalar keltirilgan: birinchidan universitet rahbariyati fakultet a'zolari bilan doimiy aloqani ta'minlashda tezkor qarorlarni qabul qilishi lozim, ikkinchidan universitet o'qituvchisi (uning ilmiy darajasi va boshqa holatidan qat'iy nazar) unga to'liq professor sifatida munosabatda bo'lish belgilab berilgan.

Ko'rinib turibdiki, yaqin bir asrlik tarixga ega bo'lgan qarorda ham universitetning xalqaro tasnifga doir mezonlari dolzarb xususiyatga ega bo'lgan. Bu esa, universitetlarda global reytinglardan ko'ra, xalqaro tasnifga ega bo'lish maqomi muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy xulosa qilib aytganda, ayrim mamlakatlarda universitetlarning global reyting va jahon tasnif kabi kategoriyalarga nisbatan yondashuvlar o'zaro farqlanmoqda. Bizningcha, ushbu ikki kategoriya bir-biri bilan bog'liq holda shakllansada, reytinglarga juda ko'p e'tibor berishdan ko'ra xalqaro tasnif maqomiga ega bo'lgan universitetlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida akademik mustaqillik darajasini eng quyi bo'g'inga qadar ta'minlanishiga erishish. Bunda professor-o'qituvchilar faoliyatidagi barcha akademik hujjatlarni rasmiylashtirishdagi mustaqillikni inobatga olish zarur. Shuningdek, akademik mustaqillikni ta'minlashni birlamchi xususiyat bilan birga uning quyi va yuqori chegara mezonlarini ham joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda va ularni boshqarishda tadqiqotchilarni ijtimoiy, moliyaviy qo'llab quvvatlashni nazarda tutish. Bunda, ilmiy tadqiqotlar uchun nafaqat moliyaviy ta'minotni nazarda tutish balki ijtimoiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Uchinchidan, universitetda ijtimoiy hayotni yanada barqaror bo'lishiga qaratilgan tadbirlarni rivojlantirish. Bunda mavjud shart-sharoit infratuzilmasini qulayliklarga ega bo'lishini ko'zda tutish. Shuningdek, jamoaviy faoliyatning barqaror rivojlanishi uchun ijtimoiy muhit oddiyligi va mustahkamligini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, universitetlarning xalqaro reyting ro'yxatlarida barqaror o'rin egallashi bilan birga, xalqaro tasnif maqomini saqlab qolishiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bizningcha, xalqaro tasnif maqomi xalqaro miqyosda tan olingan akademik, ilmiy va ijtimoiy hayot uchligini ta'minlash birlamchi ahamiyatga ega bo'lishi zarur hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. State of the World's Youth. <https://www.un.org/en/global-issues/youth>.
2. Wilbers, S., Brankovic, J. The emergence of university rankings: a historical-sociological account. High Educ 86, 733–750 (2023). <https://doi.org/10.1007/s10734-021-00776-7>.
3. Nelson, A.R. Ranking university innovation: a critical history. Entrep Educ 1, 1–10 (2018). <https://doi.org/10.1007>



- s41959-018-0002-y.
4. Shin, J.C., Toutkoushian, R.K. (2011). The Past, Present, and Future of University Rankings. In: Shin, J., Toutkoushian, R., Teichler, U. (eds) *University Rankings. The Changing Academy – The Changing Academic Profession in International Comparative Perspective*, vol 3. Springer, Dordrecht. [https://doi.org/10.1007/978-94-007-1116-7\\_1](https://doi.org/10.1007/978-94-007-1116-7_1).
  5. Stergiou KI, Tsikliras AC (2014) Global university reputation and rankings: insights from culturomics. *Ethics Sci Environ Polit* 13:193-202. <https://doi.org/10.3354/esep00140>.
  6. Estimated number of universities worldwide as of July 2023, by country <https://www.statista.com/statistics/918403/number-of-universities-worldwide-by-country>.
  7. Higher Education Market Size & Trends. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/higher-education-market>
  8. The Times Higher Education World University Rankings 2024. <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/2024/world-ranking>.
  9. Usher, A. (2016). A short global history of rankings. In *Global rankings and the geopolitics of higher education* (pp. 47-77). Routledge.
  10. Leydesdorff, L., Wagner, C. S., & Zhang, L. (2021). Are university rankings statistically significant? A comparison among Chinese universities and with the USA. *Journal of data and information science*, 6(2), 67-95.
  11. Grewal, R., Dearden, J. A., & Llilien, G. L. (2008). The university rankings game: Modeling the competition among universities for ranking. *The American Statistician*, 62(3), 232-237.
  12. Brasco, C. (2014). Friendship formation at Yale University: An evaluation of the residential college system.
  13. Leader of Prestigious Yale Program Resigns, Citing Donor Pressure <https://www.nytimes.com/2021/09/30/arts/yale-grand-strategy-resignation.html>
  14. Yale's unwavering commitment to academic freedom, October 1, 2021 <https://salovey.yale.edu/writings-and-speeches/statements/yales-unwavering-commitment-academic-freedom>.
  15. Yale expands efforts to protect scholars at risk, February 7, 2023. <https://news.yale.edu/2023/02/07/yale-expands-efforts-protect-scholars-risk>.
  16. Holcombe, A. N., Cheatham, E. E., Gideonse, H. D., & Sabine, G. H. (1937). Academic Freedom and Tenure: Yale University. *Bulletin of the American Association of University Professors* (1915-1955), 23(5), 353-382.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

